

XALQARO GLOBAL MUAMMOLAR

Abdullayeva Navro'za Umidjon qizi
O'zMPU "Logopediya" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Global muammolar insoniyatning bugungi kunda yuzaga kelayotgan, butun dunyo bo'ylab jamiyatga ega bo'lgan jiddiy masalalardir. Ularga iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, kiberxavfsizlik, kambag'allik va atrof-muhit ifloslanishi kiradi.

Bu muammolar nafaqat ekologik va iqtisodiy sohalarga, balki inson salomatligi, xavfsizligi va jamiyatning barqaror rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni hal qilish uchun xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va barqaror rivojlanish strategiyalari zarurdir.

Kalit so'zlar: Global muammolar, iqlim o'zgarishi, pandemiya, kiberxavfsizlik, kambag'allik, atrof-muhit ifloslanishi, inson salomatligi, ekologiya, barqaror rivojlanish, xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiya.

Аннотация: Глобальные проблемы — это серьёзные вызовы, имеющие важное значение для всего человечества. К ним относятся изменение климата, пандемии, кибербезопасность, бедность и загрязнение окружающей среды. Эти проблемы оказывают негативное влияние не только на экологию и экономику, но и на здоровье людей, безопасность и устойчивое развитие общества. Для их решения необходимы международное сотрудничество, современные технологии и стратегии устойчивого развития.

Ключевые слова: глобальные проблемы, изменение климата, пандемии, кибербезопасность, бедность, загрязнение окружающей среды, Загрязнение окружающей среды, здоровье человека, экология, устойчивое развитие, международное сотрудничество, современные технологии.

Annotation: Global issues are serious challenges that hold significant importance for all of humanity. These include climate change, pandemics, cybersecurity, poverty, and environmental pollution. Such problems negatively affect not only the environment and human health, but also human safety and the sustainable development of society. Addressing them requires international cooperation, modern technologies, and sustainable development strategies.

Keywords: Global issues, climate change, pandemics, cybersecurity, poverty, environmental pollution, human health, ecology, sustainable development, international cooperation, modern technologies.





Global muammo butun dunyoni jamiyat oldidagi va insoniyatning kelajagi uchun xavf tug'diradigan turli xil omillardir. Masalan, iqlim o'zgarishi – bu asosan atmosfera haroratining oshishi, dengiz sathining ko'tarilishi va ob-havo hodisalarining o'zgarishi tufayli iqlimning keskinligi, daryo va dengizlar suvi kamayishi, ko'plab hayvon va o'simlik turlarining yo'qolishi.

Ko'plab turdagi omillarning o'zgarishiga sababchi bo'lmoqda. Bunda o'simliklar, hayvonlar va meva-sabzavot yetishtirish qiyinlashmoqda. Aholining o'sishi va tabiiy resurslarning kamayishi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu kiber xavfsizlik tamoyilidagi muammolardir. Bularga viruslar va zararli dasturlar, fishing (oldest orqali ma'lumot olish), ransomware (fayllarni shifrlab, pul talab qilish) kabi hujumlari, parollarni buzish va boshqa ko'plab turdagi yo'nalishlari bor.

Bu yo'nalishdagi tamoyillardan barcha sohalar jiddiy tarzda aziyat chekmoqda. Shuni ham ta'kidlash o'rinliki: kiber xavfsizlik muammosining to'liq yechimi yo'q, lekin insonlar murakkab parol yaratish, noma'lum manbalardan kelgan havolalarni ochmaslik, shubhali e-mail va ilovalardan foydalanmaslik, shuningdek muhim ma'lumotlarni doimiy zaxiralab turish va texnologik vositalardan to'g'ri foydalanish orqali katta yo'qotishlarning oldini olish mumkin. Global muammolardan yana biri pandemiyadir.

Pandemiya – bu butun dunyo bo'ylab yoki bir necha qit'ada tarqalgan, keng miqyosdagi yuqumli kasallikdir. Dunyoning ko'plab hududlarida bir vaqtda tarqalishi, xavfliligi tufayli ko'plab insonlar hayoti uchun xavf tug'diradi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, XIV asrda “qora o'lim” vabo kasalligi tarqalib, ko'proq Yevropa va Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, 75–100 million insonning hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'lgan. Bunga misol qilib COVID-19ni ham keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston hududiga 2020-yil kirib kelgan va rasmiy pandemiya deb e'lon qilingan. Rasmiy statistikaga ko'ra 6 milliondan ortiq inson vafot etgan. Pandemiya qarshi kurashishda tibbiyot, fan, davlatlararo hamkorlik va aholining hushyorligi talab etiladi. Atrof-muhit muammolari: masalan, havo tarkibi.

Transport vositalari, mashinalar, zavodlar va yopiq joylardan chiqayotgan tutun va gazlar havo ifloslanishiga sabab bo'ladi. Sanoat chiqindilari, kimyoviy moddalar, plastiklarning tarqalishi, o'rmonlarning kesilishi kislorod kamayishi, hayvonlar yashash joyining qisqarishi, chiqindilar muammosi – plastik va boshqa parchalanmaydigan moddalar to'planib borishi. Bular barchasi global muammo yuzaga keltirmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning yo'llari bor. Biz agar daraxt ekadigan bo'lsak, kislorod ko'payadi, tuproq eroziyasini kamayadi. Chiqindilarni ajratib tashlash qayta ishlashni osonlashtiradi va ifloslanishni kamaytiradi. Suvni tejash, ichimlik suvining zaxiroi saqlanib boradi.





Agar siz velosipedda yoki o'rishga ketayotgan bo'lsangiz va siz boradigan joy yaqinroq bo'lsa avtomobilda emas, velosiped transportidan foydalanishingiz maslahat beriladi.

Chunki, bu sog'ligingiz va faoliyatingiz uchun ham foydali hisoblanadi. Atrof-muhit bizning hayotimizning asosi. Uni asrash – hozirgi va kelajak avlodlar uchun sog'lom, toza va xavfsiz hayotni ta'minlash demakdir.

Qashshoqlik ham global muammolar qatoriga kiradi. Qashshoqlik butun dunyoni chetlab o'tmagan tamg'oq desak adashmagan bo'lamiz. Hatto bu tamg'oq bizning yurtimizda ham bor. O'zbekistonda qashshoqlikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha yetti ustuvor yo'nalishni qamrab olgan kompleks dastur amalga oshirilmoqda.

Bu haqda Shavkat Mirziyoyev 17-sentabr kuni Namanganda bo'lib o'tgan “Qashshoqlikdan farovonlik sari” xalqaro forum ochilishida aytib o'tdi. Davlat rahbari ayniqsa e'tiborini, kambag'al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o'rinlarini ko'paytirib, odamlar barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun sharoit yaratilayotganiga qaratdi. Chunki, iqtisodiy o'sish iqtisodiy o'sish ortidan qadamba-qadam qashshoqlikni.

O'zbekiston 2030-yilga borib qashshoqlikni keskin qisqartirish bo'yicha olgan majburiyatini bajarish borasida harakat qilayotganini ta'kidladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan global muammolar insoniyatning barqaror rivojlanishiga katta to'siq bo'lmoqda. Global muammolar faqat bitta mamlakat yoki mintaqaning masalasi emas, balki butun insoniyatning umumiy vazifasi sifatida ko'rilishi zarur. Muammolarni hal qilish uchun har bir insonning mas'uliyatli yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Biz kelajak avlod uchun sog'lom va barqaror dunyo qoldirishimiz kerak. Shu bois, resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, ekologiyani, sog'liqni asrash lozim.

Falsafada shunday bir jumla bor “Agar sen tabiatga zarar bersang, kun kelib u albatta sendan qastini oladi” deyilgan. Shuning uchun biz tabiatni asramog'imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.T Jabborov, Sh.A Xalillayev – “Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv”.
2. Petrov Yu.V, Egamberdiyev H.T, Aloutdinov M, Xolmatjanov B.M “Iqlimshunoslik”
3. L.A. Alibekov “Geo-Ekologik muammolar”
4. Gazeta.uz.

